TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-dekabr | 325-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyat hokimining 2024 yil 26 noyabrdagi 853-10-0-Q/24-sonli qarorining ijrosi haqida

Toshkent viloyat hokimining 2024 yil 26 noyabrdagi “Toshkent tumani hududidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan yer maydoni ajratib berish to‘g‘risida”gi 853-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Yer kodeksining 5-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyat hokimining 2024 yil 26 noyabrdagi “Toshkent tumani hududidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan yer maydoni ajratib berish to‘g‘risida”gi 853-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani, “Chig‘atoy” MFY hududida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan 0,01 gektar yer maydoni suv ko‘tarish inshooti qurilishi uchun Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buyurtmachiga belgilangan tartibda:

viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasiga arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berish hamda loyihasmeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyihachi tashkilot bilan
shartnoma tuzish;

loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar bilan yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish;

viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyatsidan qurilish ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnoma olish; mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki

ularning muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirish hamda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng foydalanishga topshirish vazifalari yuklatilganligi inobatga olinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda
davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal bo’limi (N.Bazarbayev), yuqorida ko’rsatib o’tilgan yer maydonida muhandislik inshootlari qurilishi va foydalanishga topshirilishi bilan, ekspluatasiya tashkilotiga o’rnatilgan tartibda topshirish yuzasidan zaruriy choralar ko’rilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**